

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN MAKTAB INTERNATI O'QUVCHILARIGA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA NOANANAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi
alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgam (Kar va zaif
eshituvchi) bolalar uchun 122-somli maktab
internatining Informatika fani o'qituvchisi
Nozorova Maxfuza O'rol qizi*

Annotation: ushbu maqolada alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan maktab internati o'quvchilariga informatika fanini o'qitishning ilg'or zamонавиу pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslublaridan foydalanish yordamida bolalarda informatika fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakillantirishga a'lovida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, texnologiya, metod, informatika, ilm, bola, o'qituvchi, o'yin, ta'lism, tarbiya, inkluziv ta'lism.

Hozirgi kunda mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lismni tizimli isloq qilishning ustuvor yo'naliшlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish eshitmaydigan yoki eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolalarga informatika fani noananaviy ta'lism metodlaridan foydalanilgan holda dars jarayonlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" asosida qator reja va loyihalor ishlab chiqildi.

Bugungi ta'lism tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda, ta'lism berishga innovatsion yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari tufayli o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, asosiy tashkilotchiga aylanmoqdalar. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, Informatika va AT fanini o'qitishni o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari, ya'ni bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy kompetensiyalarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish imkonini beruvchi ba'zi zamонавиу texnologiyalar va o'qitish metodlarini qo'llagan holda loyihalashtirish ayni muddaodir.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lism muassasasida

21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi [1.3].

A'lohida ta'limga ehtiyoji bo'lган bolalarga dars beradigan o'qituvchi eng avvalo o'qitish va o'rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim. Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o'qitishdir. O'qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideniya, video va boshqalar) ishlatalishi mumkin.

Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lган o'qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik 43 variantlarini ochib beradi [2.4].

Kompyuterli o'qitish texnologiyasida quyidagilar zarur hisoblanadi: individual o'qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida tashxis testlar o'tkazish; o'quv maqsadlariga erishilganligini baholash. Kompyuterli o'qitish texnologiyasida, o'qitish tsiklning qayta takrorlanishi uchun eng maqbul sharoit yaratiladi. Bu o'qitish texnologiyasida pedagogning funktsiyasi quyidagilardan iborat bo'ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o'quv jarayonining (o'quv jarayoni grafigi, tashxislash, nazorat) guruh, o'quv fan miqyosida tashkil etish; ishchi o'rinalarini tashkil etish, yo'l-yo'riqlar berish, tarmoqni boshqarish; tahsil oluvchilar bilan muloqotda bo'lish, individual o'qitishni ta'minlash [1].

Informatika ta'limida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalari. «Informatika» fanining pedagogik vazifalari insonning umumiyligi ta'lim olishidagi asosiy vazifalarini hal etishda qo'shadigan o'ziga hos hissasi bilan aniqlanadi.

1. o'quvchilarda informatika xaqidagi bilimni shakllantirish va ular tafakkurini rivojlantirish.

2. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu muhim vazifani hal etishda butun pedagogik jamoa barcha o'quv 'redmetlarini o'qitish jarayonida ishtirok etadi.

3. Milliy mafkura ruhida tarbiyalash. o'quvchilarni amaliy faoliyatga, mehnatga, ta'lim olishni davom ettirishga tayyorlash.

Yuqorida masalalardan hech biri boshqalaridan ajratilgan holda, alohida hal etilmasligi lozim. Ular bir butunlikda bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda amalgalashilishi lozim. O'quvchilar informatika asoslarini mustahkam egallashlari asosidagina ularning tafakkurini tarbiyalash va ilmiy dunyoqarashni yaratish mumkin. Ikkinchi tomondan, mantiqiy fikrlashga o'rgatish bilangina, o'quvchilarning informatikani fan sifatida uning o'ziga xos tomonlarini chuqrush tushunishlariga erishish mumkin. Bundan tashqari, informatikani o'qitish jarayonida amaliy faoliyatga

tayyorlash vazifasini to‘g’ri hal etishga erishish uchun informatika darsining qiziqarliligini oshirish lozim.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning darsning maqsadi bo‘yicha natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyoroda, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab ishlatilgan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi[5].

Xulosa qilib aytganda a’lovida ta’limga ehtiyoji bo’lga bolalarga ta’lim va tarbiya jarayonida va informatika fanini pedagoglar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish uchun keng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li - bu mashg‘ulotlarni innovatsion metodlar yordamida tashkil etishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta’lim xalqaro va milliy tajribalar”- o‘quv uslubiy qo‘lanma.Toshkent 2011
2. “Inklyuziv ta’lim asoslari” -o‘quv uslubiy qo‘llanma.Urganch 2020.
3. G‘aniyeva A.T. “ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni samaradorligini oshirishning o‘zbekiston va xorijiy ta’lim tajribasi” Science And Innovation. 2022 №4. 572-577 bet
4. Nishanova Y.O‘, Ataxonova E.J. “Informatika va AT” fanini o‘qitishda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlarning integratsiyasi.
5. Ismatilla Isoqov, Sindorqul Ibragimovich Qulmamatov. “Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar”. Ma’ruza matnlari